



O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARIDA USLUBIY NEYTRALLIK VA EKSPRESSIVLIK

Rajabova Nodira Abdullajon qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Filologiya
fakulteti O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19658810>

ARTICLE INFO

Received: 4th April 2026

Accepted: 5th April 2026

Published: 20th April 2026

KEYWORDS

frazeologizmlar, nutq uslublari, obrazlilik, kitobiy frazemalar, so'zlashuv nutqi frazemalari.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tili frazeologizmlarining funksional-uslubiy xususiyatlari va ularning nutqdagi ekspressiv-baholash tadqiq etiladi. Iboralarning uslubiy neytrallik darajasi tahlil qilinib, ularning leksik qatlamdagi neytral so'zlardan farqli jihatlari ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, frazemalarning nutqiy vaziyatga ko'ra o'zgaruvchanligi hamda tilning tarixiy taraqqiyoti davomida uslubiy bo'yoqdorlikning masalalari yoritilgan. Ularda har doim muayyan darajada emotsional-ekspressivlik saqlanib qoladi.

Frazeologiya bo'limi tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, bu bo'limda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, ya'ni iboralar o'rganiladi. Iboralar qotib qolgan ular sintaktik tahlilda ham bir so'roqqa javob bo'ladi. "Frazeologiya" so'zi yunoncha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalardan tashkil qilinadi.

Frazeologik birliklarni o'rganish va tadqiq etish tilshunos olimlarni bugungi kunda ham va o'tmishda ham qiziqtirib kelgan. XIX asrgacha iboralar lug'atshunoslik tarkibida o'rganilib, bunda ularning faqat ma'nolari va etimologiyasi bayon etilgan.

Ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topgan, yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan va ma'nosi bir so'zga teng bo'lgan barqaror birikmalarga ibora deyiladi. Iboralar ba'zan so'z birikmasiga, ba'zan gapga teng kelishi mumkin. Iboralarni frazeologiya bo'limida o'rganiladi. Ularning lug'aviy ma'nosi odatda bitta so'zga teng bo'ladi va bir sintaktik vazifani bajaradi.¹

Iboralar nafaqat ma'lum bir fikr bayoni, balki ma'lum bir millat, xalqning tarixiy, madaniy va ma'rifiy xususiyatlarining tildagi ifodasidir.. To'n bu turkiy xalqlarga xos bo'lgan kiyim. O'zbeklar to'yda xursandchilik paytlarida chiroyli to'nlarni kiyishadi. Bu Yevropa madaniyatiga xos emas. Xafa bo'lmoq, jahli chiqmoq ma'nolarini berish uchun to'nini teskari kiydi iborasi ishlatilishi mumkin.

Qadimiy yozma manbalar tilida to'n so'zi umuman ust kiyim, chopon, chakmon, po'stin ma'nolarini anglatgan. Davr o'tishi bilan to'n so'zining ma'no doirasi ancha torayib, hozirda beqasam, banorasdan tikilgan avra astarli erkaklar kiyadigan ustki milliy kiyim turini

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. Rajabova Kumush Toshkent-Firdavs Shoh nashriyoti-2025

ifodalaydi. Bu milliy kiyim nafaqat xalqning milliyligi, urf-odatini, balki tildagi o'ziga xos madaniyatni ham aks ettiradi.

Hayotimizning bir qismiga aylangan ibora va maqollarning mavzu ko'lami keng qamrovli bo'lganligi, ularda nafaqat ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolari va oilaviy hayotning kichik odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlari hamda insoniyatga xos kichik kamchiliklarigacha, falsafiy fikrlashi zarracha bo'lgan jonivorlarning xususiyatigacha o'z aksini topgan. Maqollar va iboralar hayotiy tajribalar va kuzatuvlar natijalarida paydo bo'ladi, uning donishmandligi, hayot tarzi, muomala madaniyatini tafvsiflovchi ma'naviy xazina asrlardan asrlarga o'tib kelaveradi. Iboralar bir necha yuz yillar mobaynida xalqning milliyligini o'ziga akslantirgan va hech qanday sharxlarsiz o'z milliyligini ko'rsatuvchi asos kabi izohlanadi.

Do'ppisini osmonga otmoq iborasidagi do'ppi o'zbek millatining milliy bosh kiyimi hisoblanadi. Bu bosh kiyim qadimdan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Boshqa xalq, millatlarning do'ppilaridan o'ziga xos shakli, bezagi va ranglar jilosi bilan farqlanadi. Do'ppi faqat kiyimning bir qismi emas, balki xalqning madaniyati urf-odatlarining tarkibiy qismidir. Bunday barqaror birikmalarni xalq og'zaki ijodida va badiiy adabiyotlarda ham ko'p ko'rishimiz mumkin: Sizni qarang, men "to'rt" olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim! (O.Yoqubov. "Muqaddas"). Bu ibora orqali biror bir voqea hodisadan juda quvonish, xursand bo'lish, ma'nolari ifodalangan.

To'nini teskari kiymoq iborasi bugun gaplari boshqalarnikiga ters, bir narsa ikki qilib qaytaradigan, gapirsang jerkib tashlaydigan odamga qaratiladi. Insonlarda kuzatiladigan har xil ruhiy holat natijasida gohida g'amgin, gohida juda ham xursand bo'lishi mumkin. Kishilardagi mazkur holatlarni ifodalashda, ko'pincha, fikrning ta'sir kuchi yanada yuqori va ta'sirli bo'lishini ta'minlash maqsadida oddiy so'zlardan ko'ra, ifodaviylik kuchi ancha yuqori bo'lgan iboralardan foydalanilsa maqsadga muvofiqdir.

So'zlarning o'zaro bog'lanib so'z birikmasini hosil qilish hodisasi qismlarining erkin birikishini ko'zda tutadi. Turg'un-barqaror birikmalar frazeologik iboralar boshqacha xususiyatga ega, ularda erkin bog'lanish emas, grammatik-semantik butunlik, ajralmaslik mavjud bo'ladi²

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek tili frazemalarining ekspressiv-semantik ko'lami nutqiy vaziyatga ko'ra o'zgaruvchan tabiatga ega. Iboralarning funksional-uslubiy differentsiatsiyasi tilning evolyutsion jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Frazeologiya doirasidagi uslubiy xoslanmagan birliklar leksik tizimdagi neytral so'zlardan farqli o'laroq, o'zida doimo ekspressivlik va emotsional baho komponentini saqlab qoladi. Shu bois, ularni "uslubiy neytral" deb atash ilmiy jihatdan yetarli asosga ega emas, chunki ular nutqda oddiy axborot tashuvchi vosita emas, balki sub'ektiv munosabat ifodalovchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saidova Z.X. Frazeologiyani o'rganish inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning chog'ishtirma tahlili NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan-2021
2. Saidova Z. X, Haydarov A.A., Ruhiy jarayonlar va shaxsiyat xususiyatlari konseptual zonasi frazeologizmlarining struktur grammatik tahlili. Ilm sarchashmalari, Urganch- 2021
3. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarini shakllanish masalalari T,1999
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologik lug'ati T,1996
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining ba'zi masalalari. - T.,

² 4A.G'ulomov, M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (sintaksis). 2-qism. T., "O'qituvchi" 1987, 26-bet.

6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T,2006.
7. Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklarning funksional – uslubiy xususiyatlari. – T-1993
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 1985

